

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIK TA‘LIM KAFEDRASI**

**“OLIY TA‘LIM SIFATI – YANGI O‘ZBEKISTON
TARAQQIYOTINI YANADA YUKSALTIRISHNING
MUHIM OMILI”**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI

(2024 yil 10 oktabr)

Buxoro - 2024

“Oliy ta’lim sifati - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili” mavzusidagi // respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2024. 300 bet

Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plamida Respublikamiz va Rossiya olimlari, soha mutaxassislari, ilmiy tadqiqodchilar, magistrlar, talabalar maqolalari o’rin olgan.

Ilmiy anjumanning dasturiy qo’mitasi

1.	B.B.Ma’murov	–	Institute rektori, p.f.d., professor, rais;
2.	Sh.N.Murodov	-	Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar prorektori, f.f.f.d.(Phd), dotsent hamrais;
3.	G.R. Akramova	–	BuxDPI ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo’lim boshlig’i, p.f.d (DSc), professor rais o’rinbosari.
4.	E.M. Muxtorov	–	BuxDPI dotsenti, p.f.n., a’zo;
5.	S.Q. Qahhorov	–	BuxDu professori, p.f.d. a’zo;
6.	B.Q.Xodjayev	–	BuxDu professori, p.f.n. a’zo;
7.	Sh.SH.Olimov	–	BuxDu professori, p.f.d. a’zo;
8.	G.V.Izbullayeva	–	BuxDPI professori, p.f.d. a’zo;;
9.	M.Ya.Ergashov	–	BuxDPI professori, k.f.n., a’zo;
10.	G.T.Boymurodova	–	BuxDPI professori, p.f.d. (DSc), a’zo;
11.	Q.F.Abdullayev	–	BuxDPI dotsenti, a’zo;
12.	M.Farmonov		Vobkent tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi boshlig’i a’zo;
12.	S.M.Umarova	–	BuxDPI dotsenti p.f.f.d.(Phd), a’zo;
13.	A.N.Nusratov	–	BuxDPI dotsenti p.f.f.d.(Phd), a’zo;

Mas’ul muharrir:

S.M.Umarova pedagogika fanlari bo’yicha, falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchi:


Sh.SH.Olimov, pedagogika fanlari doktori, professor

G.V.Izbullayeva pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

To’plovchi va nashga tayyorlovchi:

A.N.Nusratov

PhotoEditor – **Microsoft Office** tarkibiga kiruvchi rasm skanerlashga yordam beruvchi hamda grafik material tayyorlash uchun ba'zi operatsiyalarni bajaruvchi dastur (kontrast, yorug'lik, ranglilik va rasm oriyentatsiyasini o'zgartirish).



Kompyuter grafikasi yangilikdan zaruratga aylandi, lekin multimedia texnologiyalari turli Web-taqdimotlarni loyihalashtirishda alohida ahamiyatga ega, ma'ro'zalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalari shular jumlasidandir. Ular loyihani yaratishda ijodiy yondashuvga e'tibor qaratishga yordam beradi. O'qituvchi yoki kursni loyihalashtiruvchi taqdimotlarni yaratishda turli murakkablikdagi vizual materiallarni taklif etishi mumkin. Bundan tashqari, yakuniy mahsulotga ta'sir etuvchi ishtirokchilarning aqliy rivojlanish darajasi, psixologik barqarorligi va shu kabi omillarni e'tiborga olish zarur. Va nihoyat, ehtimol, hal qiluvchi omil – vizual grafik animatsiyalar va interfaol ishlanmalar ish jarayoniga ko'lam va o'ziga yarasha joziba beradi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan yondashuvlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, yuqori ilmiy-uslubiy saviyada elektron o'quv nashrini yaratish o'quv uslublarini takomillashtirish yo'llaridan biri hisoblanadi. Elektron o'quv nashrini loyihalashtirishning quyidagi asosiy bosqichlarini ajratish mumkin:

- o'quv materiallari mazmuni modelini to'zish;
- qo'llanma uchun ssenariy ishlab chiqish;
- o'quv paketi uchun ssenariylar va algoritmlar to'zish.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda elektron o'quv nashrining axborot ta'lim muhiti o'qitish vositalarining majmui bo'lishi mumkin. Uning vazifasi esa muayyan hajmdagi yangi bilimlarni mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'ladi.

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASHDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH.

Abdullayeva Feruza Nurillayevna
- Buxoro davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedراسи dotsenti, PhD.
abdullayevaferuza@buxdpi.uz
998973026869

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar kundan kunga oshib bormoqda. O'z navbatida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hukumatimiz tomonidan ta'lim sifatini oshirishda PIRLS singari xalqaro tadqiqotlarning joriy etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada shu haqda so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: ona tili va o'qish savodxonligi, ta'lim tizimi, PIRLS xalqaro tadqiqotlar.

Аннотация: Требования к сфере современного образования возрастают день ото дня. С другой стороны, введение нашим правительством международных исследований, таких как PIRLS, для повышения качества образования на родном языке и обучения грамоте чтения также важно. Об этом мы поговорим в этой статье.

Ключевые слова: родной язык и читательская грамотность, система образования, международные исследования PIRLS.

Annotation: The requirements for the field of modern education are increasing day by day. On the other hand, the introduction of international studies like PIRLS by our government in improving the quality of education in mother tongue and reading literacy classes is also important. We will talk about this in this article.

Keywords: Key words: mother tongue and reading literacy, educational system, PIRLS international studies.

Bolaning tafakkuri, ijodiyliigi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimida boshlang'ich sinfni tugatayotgan har bir o'quvchi shaxsiga bir qancha zamonaviy, shu jumladan, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yangi talablarni qo'yadi. Binobarin, o'qitishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, uslublari va usullarini qayta ko'rib chiqqan holda ishlab chiqilgan yangi milliy dasturning qabul qilinishi bu boradagi ishlarning samarasini oshirishda asosiy dasturulamal bo'lib, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, aqliy va ijodiy salohiyatining yanada yuqori bo'lishida xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi milliy o'quv dasturga ko'ra nashr qilingan ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarining joriy qilinishi o'quvchi va o'qituvchining faolligini oshirishni, o'z ustida tinimsiz ishlashni, o'quv topshiriqlarni ijodiy yondashgan holda bajartirish va bajarishni nazarda tutadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad PIRLS xalqaro tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsadga erishishdir.

Davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolagan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni da inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi.

O'z navbatida kelgusida mamlakatimiz ta'lim sifatini baholash bo'yicha - PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash) xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi ko'zda tutildi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Shunday ekan, ona tili va o'qish fanlarini o'zaro integratsiya qilgan holda yagona fan sifatida o'qitilishi o'quvchilarning diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan-to'g'ri o'zi mustaqil xulosalar chiqarish, matn elementlarini tanqidiy baholash, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish malakalarini shakllantiradi.

O'quvchilarga badiiy asarlarni o'rgatish, ularda nutq malakalarini shakllantirish, nutq o'stirishni nazarda tutadi.

Nodavlat umumta'lim muassasalari, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarni nashr etish hamda boshqa xalq ta'limi sohalari faoliyatini tartibga soluvchi normativhuquqiy baza rivojlantiriladi. Bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish reglamenti tasdiqlanishi lozim.

Yangi davlat ta'lim standartlari va umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarini, shu jumladan STEAM usulini bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish ko'zlangan. Xalq ta'limi muassasalari ilg'or jahon tajribasiga tayanib, ta'lim sifatini takomillashtiradilar. Respublikaning quyidagilarda ishtirok etishi bunda yordam beradi:

PISA o'quvchilarning o'qishdagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dasturda (15–16 yashar o'quvchilarning matematik savodxonligi, o'qish va tabiatshunoslik sohasidagi savodxonligini baholash);

TIMSS maktabdagi matematika va tabiiy fanlar sohasidagi ta'lim sifatining xalqaro tadqiqotida (4 va 8-sinflar o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar sohasidagi savodxonligini baholash);

PIRLS matnini o'qish va tushunish sifatining xalqaro tadqiqotida (boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnini o'qish hamda tushunish darajasi va sifatini baholash).

Bundan tashqari, mamlakatimiz TALIS o'qitish va o'qish tizimining xalqaro tadqiqotida (o'qituvchilarning mehnat sharoiti va maktablardagi ta'lim muhitini baholash) qatnashadi.

Ushbu masalalarni hal etishda umumta'lim muassasalarida shu jumladan quyidagi usullar orqali chet tillarni o'qitishni kengaytirish loyihasiga tayanadilar:

- rus, ingliz, frantsuz, nemis va boshqa tillarga o'rgatadigan maktablar ochish;
- malakali mutaxassislarni tayyorlash va xorijdan jalb etish;
- zamonaviy talablarga javob beruvchi chet tillardagi darsliklarni nashr etish.

Ta'lim sifatini oshirish uchun uning holati va rivojlanish tendentsiyalarini uzluksiz monitoringini olib borish va o'quvchilarning o'quv yutuqlarini ob'ektiv va adekvat baholashni amalga oshirish zarur. Bu ayniqsa, o'quvchilarning keyingi shaxsiy va fuqarolik rivojlanishi uchun zamin yaratadigan umumiy o'rta ta'lim darajasida muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8 dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bilan xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchiyo'shlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llabquvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlaridan etib:

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;
- xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;
- o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabilar belgilandi.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqildi, unga ko'ra, o'quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo'yicha ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish; o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish; o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'limni joriy etish; xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish yuzasidan malakali o'qituvchitrenlar bilan hamkorlikda hududlarda o'quvlar tashkil etish kabilar belgilangan.

Tadqiqot natijalariga statistik ishlov berish natijasida har bir o'quvchi 1000 balli tizimda quyidagi me'zonlar bo'yicha baholanadi:

- kundalik turmushda yuzaga keladigan real muammolarni aniqlash va ularni matematikadan foydalanib hal qilish;
- muammolarni matematika tilida ifodalash;
- muammolarni matematik bilimlar va usullarni qo'llash orqali hal qilish;
- ishlatilgan usullarni tahlil qilish;
- muammoning yechimini tushuntirish;

- hal etish natijalarini shakllantirish va qayd etish.

Bolaning tafakkuri, ijodiyligi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimida boshlang'ich sinfni tugatayotgan har bir o'quvchi shaxsiga bir qancha zamonaviy, shu jumladan, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yangi talablarni qo'yadi. Binobarin, o'qitishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, uslublari va usullarini qayta ko'rib chiqqan holda ishlab chiqilgan yangi milliy dasturning qabul qilinishi bu boradagi ishlarning samarasini oshirishda asosiy dasturulamalar bo'lib, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, aqliy va ijodiy salohiyatining yanada yuqori bo'lishida xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi milliy o'quv dasturga ko'ra nashr qilingan ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarining joriy qilinishi o'quvchi va o'qituvchining faolligini oshirishni, o'z ustida tinimsiz ishlashni, o'quv topshiriqlarni ijodiy yondashgan holda bajartirish va bajarishni nazarda tutadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad PIRLS xalqaro tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsadga erishishdir.

Davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolagan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni da inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi.

O'z navbatida kelgusida mamlakatimiz ta'lim sifatini baholash bo'yicha - PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash) xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi ko'zda tutildi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Shunday ekan, ona tili va o'qish fanlarini o'zaro integratsiya qilgan holda yagona fan sifatida o'qitilishi o'quvchilarning diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan-to'g'ri o'zi mustaqil xulosalar chiqarish, matn elementlarini tanqidiy baholash, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish malakalarini shakllantiradi.

O'quvchilarga badiiy asarlarni o'rgatish, ularni nutq malakalarini shakllantirish, nutq o'stirishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva F. TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
2. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50.
3. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
4. Nurullayevna A. F. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIY OMMAVOR MAQOLALARNI O'RGATISH //БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 406-409.
5. Kurbanova S. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ-ЦЕЛОСТНАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА КУРБАНОВА ШОИРА НАРЗУЛЛАЕВНА, АБДУЛЛАЕВА ФЕРУЗА, ОЧИЛОВА ГО //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

Исабаева Дильфуза Комилжоновна. СТРЕМЛЕНИЯ ДЖАДИДАХ ПО ПООЩРЕНИЮ ТАЛАНТЛИВОЙ МОЛОДЕЖИ.....	50
Kuzieva Zebo Kudratovna. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, ULARNING TA'LIMDAGI O'RNI VA QULLANILISH SOHALARI	52
Tosheva Nurzoda Toshtemirovna. TA'LIM SOHASIDA INTERNET-TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	55
Qodirova Nilufarxon Zokir qizi. RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TA'LIM TIZIMINI YUKSALTIRISH ORQALI YOSHLARDA AXLOQIY-MA'NAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	58
Azimova Azizabegim Uktamovna. MASOFAVIY TA'LIM TIZIMINING SAMARADORLIGI VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	61
Kuldoshev Mexriddin Avezmurodovich. SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE COMPETENCIES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS.....	63

2-SHO'BA. OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM MAZMUNINI

TAKOMILLASHTIRISH VA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING DOLZARB MASALALARI

Eshnazarov Murod Karimovich. GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH ZARURIYATI	69
Mamurova Feruza Islomovna, Xodjayeva Nodira Sharifovna. KOMPYUTER GRAFIK DASTURLARIDAN TASVIRLARNI BAJARISH IMKONIYATLARI	72
Abdullayeva Feruza Nurillayevna. O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASHDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH.....	73
Baxramova Madina Rasulovna. AMALIY MASHG'ULOTLARDA DIDAKTIK TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	77
Kenjayeva Dildora Terkashevna. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV	80
Ibatova Nigora Istamovna, Ibrohimova Oysha Ulug'bek qizi. RANGTASVIRDA TURLI BO'YASH TEXNIKALARI.....	82
Mamurova Dिल्фуза Islomovna, Ravshanova Shaxrizoda. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KUZATISH QOBILIYATINI PEDAGOGIK ASOSLAR.....	85
Nazarov Tohir Toshpo'lotovich. HARBIY TA'LIM SUBEKTLARINING BILIMI, KO'NIKMASI, MALAKALARINI TEKSHIRISH VA BAHOLASH.....	87
Nurmurodova Munisa Azamat qizi, Raxmatillovyeva Shahzoda Hikmat qizi. KIMYO FANI BO'YICHA O'QUVCHILAR BILIMINI NAZORAT QILISHNING TURLARI.....	89
Qurbonova Mahzuna Sherzod qizi. MAKTAB O'QUVCHILARIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARI JARAYONIDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	92
Raxmatova Dildora Sadriyevna. RUHIY TARBIYADA SUHBAT METODINING O'RNI	93
Sh.I.Davronov. INTEGRAL YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH	96
Sharifzoda Sardorbek O'razboy tabib o'g'li. OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA TAHLILY YECHIMLARI.....	97
Shukurov Avaz Ro'ziboyevich, Omonova Khosiyat Farhodovna. PERSPEKTIVADA NISBAT VA MASSHTAB TUSHUNCHALARI.....	100

**“OLIIY TA’LIM SIFATI – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINI YANADA
YUKSALTIRISHNING MUHIM OMILI”**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI
(2024 yil 10 oktabr)**

“Sadriddin Salim Buxoriy ” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 20 nusxa. Hajmi 324 bet. Format A4. Buyurtma 614.